Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Astronomiya fanining fizika fanlari bilan integrallab o‘qitish borasidagi birinchi qadamlar kelajakda o‘zining qanday mahsulini berishini faqat kelajak ko‘rsatadi. Bunda asosiy dolzarb vazifa sifatida fizikaning mos bo‘limlarida astronomik bilimlar berish uchun materiallar tanlash va uni talabalarga samarali etkazish mas’uliyati turadi. Shu sababdan o‘quvchilarning astronomik bilimlarga qiziqishini orttirish va ularda bu bilimlar orqali ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda axborot texnologiyalardan foydalanish integratsiyalab o‘qitish samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Kamolov I.R., Kamalova D.I., Sayfulllayeva G.I., Barakayeva S.T., Hamroyeva S.N. O.Avezmuradov “Astronomiya o‘qitish metodikasi”, Darslik, “Xorazm”, 2023.

(2). Kamolov, S.T.Barakayeva. Intellektrual mulk agentligi “Quyosh sistemasi va uning sayyoralari” DGU 05797 elektron o‘quv qo‘llanma dasturiga patent, Toshkent, 2018.

(3). I.R.Kamolov, S.T.Barakayeva Intellektrual mulk agentligi “Astronomiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogiktexnologiyalarni qo‘llash” 06406 elektron o‘quv qo‘llanma dasturiga patent, Toshkent-2018 yil

(4). I.R.Kamolov, S.T.Barakayeva. Intellektrual mulk agentligi “Quyosh sistemasi va uning sayyoralari” DGU 05797 elektron o‘quv qo‘llanma dasturiga patent, Toshkent, 2018.

(5). Barakayeva S. Integrative approach in astronomy teaching and its practical essence. “Fan va innovatsiyalar”, 2024, T. 3, №. B1, p. 390–392.

(6). Barakayeva Sarvinoz Tolqunovna. "The role of astronomical components in the interdisciplinary teaching of the" sun and solar system" section from astronomy." Uzbek Scholar Journal 24 (2024), p. 109–113.

(7). Barakayeva S. Astronomiyadan “Saturn” sayyorasi mavzusini turdosh fanlararo o ‘qitish metodikasi News of UzMU journali, 2024, 1-t, 1.2-son, 71–75-betlar.

Yadgarov Doniyor Baxodirovich (UrDU “Sport o‘yinlari” kafedrasi dotsenti),
Jumaboyeva Xonzoda Ergashboy qizi (UrDU magistranti)

FUTBOL BO‘YICHA O‘QUVCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada futbol bilan shug‘ullanuvchi yosh o‘quvchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish jarayonining pedagogik samaradorligi tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida 13–14 yoshli futbolchilarning mashg‘ulot va musobaqa faoliyatida namoyon bo‘ladigan texnik harakatlari maxsus testlar asosida baholandi. Tajriba va nazorat guruhlari ishtirokida olib borilgan pedagogik tajriba natijalari tahlili maxsus metodika asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar texnik-taktik ko‘rsatkichlarning ijobiy o‘sishini ta’minlashini ko‘rsatdi. Olingan ilmiy natijalar yosh futbolchilar tayyorgarlik tizimini takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *yosh futbolchilar, texnik-taktik tayyorgarlik, mashg‘ulot samaradorligi, musobaqa faoliyati, pedagogik tajriba.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИ ИНСТРУКТИВНЫХ ПОДГОТОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ СТУДЕНТОВ ПО ФУТБОЛУ

Аннотация. *В данной статье исследуется педагогическая эффективность процесса совершенствования технико-тактической подготовки юных футболистов. В рамках исследования технические действия 13–14-летних футболистов на тренировках и соревнованиях оценивались с помощью специальных тестов. Анализ результатов педагогического эксперимента, проведенного с участием экспериментальной и контрольной групп, показал, что тренировки, организованные на основе специальной методики, обеспечивают положительный прирост технико-тактических показателей. Полученные научные результаты имеют практическое значение для совершенствования системы подготовки юных футболистов.*

Ключевые слова: *молодые игроки, техническая и тактическая подготовка, эффективность тренировок, соревновательная деятельность, педагогический опыт.*

EFFECTIVENESS OF TECHNICAL AND TACTICAL INSTRUCTIONAL PREPARATORY ACTIVITIES FOR STUDENTS IN FOOTBALL

Annotation. *This article examines the pedagogical effectiveness of improving the technical and tactical training of young football players. The study assessed the technical performance of 13-14-year-old football players during training and competitions using specialized tests. An analysis of the results of a pedagogical experiment conducted with experimental and control groups revealed that training sessions organized using a specialized methodology resulted in positive gains in technical and tactical performance.*

The obtained scientific results have practical implications for improving the training system for young football players.

Key words: *young players, technical and tactical training, training efficiency, competitive activity, teaching experience.*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida barkamol avlodni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni sportga jalb etish hamda milliy futbolni izchil rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘quvchi yosh futbolchilarni tanlab olish, ularda professional mahorat va kompleks texnik-taktik ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, respublika futbol klublari hamda terma jamoalar uchun ishonchli sport zaxirasini yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalishlarda samarali ishlarni qo‘llab-quvvatlash va tizimli rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5924-farmoni hamda unga bog‘liq normativ hujjatlar qabul qilingan [1].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yosh futbolchilar tayyorgarligining dastlabki bosqichlarida texnik va taktik ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu holat kelajakda futbolchilarning musobaqa faoliyatida barqaror natija ko‘rsatishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Vatanimiz olimlari P.A.Akramov, I.A.Koshbaxtiyev, J.T. Iseyev hamda R.I.Nurimov tomonidan futbolchilarning integral tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida mashg‘ulot yuklamalarini samarali rejalashtirish, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni mashg‘ulot jarayonini boshqarish tizimiga joriy etish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [2].

Zamonaviy futbol sportida yuqori natijalarga erishish sportchining texnik-taktik tayyorgarlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnik va taktik ko‘nikmalarni shakllantirishda 13–14 yosh davri eng qulay bosqich hisoblanadi [3,5]. Mazkur davrda texnik harakatlarning puxta o‘zlashtirilishi futbolchilarning keyingi sport faoliyatida barqaror natijalarga erishishini ta’minlaydi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar tizimining samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

•yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasini aniqlash;

•mashg‘ulot jarayonida qo‘llanilayotgan pedagogik vositalarni tahlil qilish;

•tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlarini solishtirish;

•mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Urganch shahar 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi futbol to‘garaklarining 13–14 yoshli dastlabki tayyorlov bosqichidagi shug‘ullanuvchilari uchun yillik ish rejasiga muvofiq mashg‘ulot yuklamalari taqsimlangan bo‘lib, umumiy jismoniy tayyorgarlikka 60 soat, maxsus jismoniy tayyorgarlikka esa 30 soat vaqt ajratilgan. Dastlabki tayyorlov davrida mashg‘ulotlarning asosiy qismi yosh futbolchilarda texnik harakatlarni shakllantirish va harakat malakalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Ayniqsa, yoshlar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda umumiy harakat koordinatsiyasi, fazoviy yo‘nalishni his etish va tezkorlikka alohida e’tibor qaratiladi.

Mazkur bosqichda texnik tayyorgarlikning asosiy vazifasi yosh futbolchilarda to‘pni olib yurish, to‘pni his qilish, harakatlarni muvofiqlashtirish kabi harakat funksiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Tajribali murabbiylarning e’tirof etishicha, dastlabki tayyorlov va boshlang‘ich sport ixtisoslashuvi bosqichlarida tezkorlik va chaqqonlik sifatlari uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Bu holat, o‘z navbatida, yosh futbolchilarning ratsional texnikani muvaffaqiyatli egallashlari uchun zarur bo‘lgan funksional va harakat asoslarini yaratadi.

Tahlil va natijalar. 13–14 yoshli futbolchilar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar yillik ish rejasiga asosan tashkil etilib, texnik-taktik tayyorgarlikka 230–250 soatgacha vaqt ajratilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu yosh bosqichida texnik tayyorgarlik jarayonida to‘pni to‘xtatish, aldash harakatlari, darvozaga zarba berish kabi murakkab texnik elementlarni takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Mashg‘ulotlarda jismoniy tayyorgarlik texnik harakatlar bilan uzviy bog‘liq holda olib borilib, mashqlar mazmuni musobaqa faoliyatiga yaqinlashtiriladi.

Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi va texnik harakatlarini rivojlantirishda mashg‘ulot jarayonining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg‘ulot samaradorligini belgilovchi asosiy ko‘rsat-

kichlardan biri uning zichligi hisoblanadi. Mashg‘ulot zichligini umumiy mashg‘ulot davomida yoki uning alohida qismlari doirasida aniqlash mumkin bo‘lib, bu mashg‘ulotning tayyorlov, asosiy va yakunlov qismlarida ish yuklamasining turlicha tashkil etilishi bilan izohlanadi.

Har bir mashg‘ulot oldiga mazkur dars doirasida hal etilishi mumkin bo‘lgan aniq va konkret vazifalar qo‘yilishi lozim. O‘quv-mashg‘ulot jarayonining umumiy maqsadlari, jumladan, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik sifatlarini rivojlantirish hamda gavda tuzilishini garmonik shakllantirish, alohida konkret vazifalar tizimini izchil bajarish orqali amalga oshiriladi. Shubhasiz, faqat har bir mashg‘ulotning yuqori saviyada tashkil etilishi natijasidagina har bir darsda erishilgan aniq o‘quv natijalari bosqichma-bosqich jamlanib, umumiy pedagogik maqsadga erishish imkonini beradi.

Tajriba guruhi bilan mashg‘ulotlar maxsus ishlab chiqilgan dastur asosida tashkil etilib, unda texnik-taktik harakatlarni o‘yin sharoitiga yaqinlashtirilgan mashqlar orqali rivojlantirishga e’tibor qaratildi. Nazorat guruhi esa an’anaviy mashg‘ulotlar tizimi asosida shug‘ullandi.

1-jadval

Boshlashg‘ich tayyorgarlik guruhi jamoalarida o‘tkazilgan dastlabki texniktest natijalarining qiyosiy tahlili

Texnik-taktik test talablari	12-maktab		
	Tajriba guruhi jamoasi (n = 9)	Nazorat guruhi jamoasi (n =10)	Qiyosiy samaradorlik
1. 30 metrga to‘p bilan yugurish (soniya)	9,7	8,2	< 1,5
2.To‘pni belgilangan mo‘ljalga aniq tepish (8 marta/imkoniyat)	4,7	3,4	> 1,3
3. Ustunlar orasidan to‘pni olib yurish va darvozaga zarba (soniya)	14,1	12,7	< 1,4
4. 30 metrga to‘pni aniq uzatish (5 marta /imkoniyat)	2	3	< 1
5. To‘p bilan janglyorlik (daqiqa/marta)	22	27	< 5
6. 10 x 10 konvert usulida to‘pni olib yugurish (soniya)	22,7	23,8	> 1,1

Nazorat testlari tarkibida – to‘pni mo‘ljalga aniq tepish, ustunlar orasidan to‘pni tez sur’atda olib yurish, to‘pni aniq uzatish, jonglyorlik mashqlari va 10 x 10“konvert” usulida to‘p bilan yugurish aynan yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik holatini baholash imkonini beradi. Dastlabki nazorat testlari bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarlik guruhlarida (tajriba va nazorat guruhlarida) qayd etilgan natijalar tahliliga ko‘ra, nazorat guruhi shug‘ullanuvchilarining aksariyat testlarda uncha katta bo‘lmasa ham tajriba guruhiga nisbatan ustunligi kuzatildi.

Boshlang‘ich test natijalari yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasi bir xil emasligini ko‘rsatdi. Ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha nazorat guruhi ustunlikka ega bo‘lgan bo‘lsa-da, pedagogik tajriba yakunida tajriba guruhi futbolchilarining deyarli barcha texnik testlarda ijobiy o‘sish qayd etildi.

13–14 yoshli futbolchilarning musobaqa faoliyati tahlili shuni ko‘rsatdiki, bir o‘yin davomida o‘rtacha 440–480 ta texnik-taktik harakat bajariladi. Ushbu harakatlarning asosiy qismini turli masofalarga to‘p uzatishlar tashkil etadi. Shu bilan birga, raqibni aldab o‘tish va bosh bilan o‘ynash elementlarida yetarli darajada barqarorlik kuzatilmadi, bu mashg‘ulot jarayonida ushbu texnikalarga ko‘proq e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini baholashda pedagogik kuzatuv, test sinovlari va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Musobaqa faoliyatini tahlil qilish yosh futbolchilarning real tayyorgarlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, texnik harakatlarning aniqligi va tezligi mashg‘ulot jarayonining ilmiy asoslangan holda tashkil etilishiga bog‘liqdir.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishda mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish muhim ekanligini ko‘rsatdi. Mashg‘ulotlarda texnik-taktik mashqlar ulushini oshirish hamda musobaqaga yaqinlashtirilgan mashg‘ulot modellarini qo‘llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5924-farmoni. 2020, Toshkent.

(2). Nurimov R.I. Turli toifadagi futbolchilar musobaqa faoliyati tuzilishning tashxisli tahlili."Fan–sportga", 1-son, 2004.
(3). Akramov R.A. Yosh futbolchilarni tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent," O'qituvchi", 2015.
(4). Godik M.A. Futbolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi. Moskva, "Sport", 2012.
(5). Lopachev Y.N. Futbolda texnik-taktik tayyorgarlik metodikasi. Moskva, "FiS", 2010.

Otamurodova Aziza Sultonmurodovna (UrDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi; orcid.org/ 0009-0000-1805-7257)

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA TALABALAR MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MEDIATA'LIM IMKONIYATLARI ILMIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishga qaratilgan media-ta'lim imkoniyatlari va bugungi kunda raqamli jamiyatda axborot vositalaridan foydalanish va qabul qilishda talabalarda mediata'lim yetarli emasligi asosiy muammo sifatida o'rganilganligi keltirib o'tilgan. Talabalarda mediakompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar dolzarb masala sifatida qaralgan.*

Kalit so'zlar: *mediata'lim, mediamatn, raqamli kelajak, deformatsiya (tashqi kuch), ambivalent (kishida bir vaqtning o'zida qarama-qarshi hissiyotning yuzaga kelishi), raqamli davr atributlari, axborot texnologiyalar, mediakompetensiya.*

ВОЗМОЖНОСТИ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация*. В этой статье рассматриваются возможности медиаобразования, направленные на развитие медиакомпетентности студентов в условиях цифрового общества, и недостаточность медиаобразования у студентов как фундаментальная проблема в использовании и восприятии информации в современном цифровом обществе. Научные исследования, направленные на развитие медиакомпетентности у студентов, рассматриваются как актуальная проблема.*

Ключевые слова: *медиаобразование, медиатекст, цифровое будущее, деформация (внешняя сила), амбивалентность (одновременное возникновение противоположных эмоций у человека), атрибуты цифровой эпохи, информационные технологии, медиакомпетентность.*

MEDIA EDUCATION OPPORTUNITIES AIMING AT DEVELOPING STUDENTS' MEDIA COMPETENCE IN THE CONDITIONS OF A DIGITAL SOCIETY AS A SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation. *This article discusses the opportunities for media education aimed at developing students' media competence in the digital society and the main problem of insufficient media education in students in the use and reception of media in the digital society today. Article discusses the opportunities for media education aimed at developing students' media competence.*

Keywords: *Media education, media text, digital future, deformation (indirect force), ambivalence (one at a time coming to the face of the opposite sensation), digital age attributes, information technology, mediacompetence.*

Kirish. Ta'lim muassasalarida mediata'lim bugungi kunda universitet talabalarining asosiy kompetentlik darajasi bo'lib, mediamaydonida ta'lim muassasasi reytingini shakllantirish uchun asosiy ta'lim texnologiyasi darajasida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bugungi raqamli jamiyat sharoitida ta'lim muassasalarining asosiy faoliyati sifatida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning media olamidagi faoliyati bilan bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biri mediata'limni rivojlkantirishga qaratilmoqda.

UNESKO tomonidan tasdiqlangan formulada mediata'limi (media education) pedagogikada "barcha turdagi ommaviy axborot vositalari (bosma va grafik, ovoz, ekran va boshqalar) va turli texnologiyalar bilan bog'liq yo'nalish sifatida belgilanadi. Mediata'lim dunyoning har qanday mamlakatlarda har bir fuqarosining so'z erkinligi va ma'lumot olish huquqi asosiy huquqlarining bir qismi va demokratiyani qo'llabquvvatlash vositasi sifatida qaraladi. Mediata'lim barcha davlatlarning milliy o'quv rejalariga, qo'shimcha yoki norasmiy va doimiy ta'lim tizimiga kiritilishi tavsiya etib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mediata'lim va mediamadaniyat bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish bizga kerakli muammoni yechimini ishlab chiqishda quyidagi yo'nalishlarni aniqlashga imkon berdi: